“““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tomonidan
jismoniy shaxsga plastik karta orqali milliy valyutada
overdraft berish qoidalari”ga
1-ilova

Kredit shartnomasida joylashtiriladigan ogohlantirishga doir axborotning

NAMUNAVIY SHAKLI

OGOHLANTIRISH!

Kredit bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarmaslik:
– umumiy qarzdorlik miqdorining oshishiga;
– qarzni undirish bo‘yicha majburiy ijro choralarining ko‘rilishiga;
– kredit bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun nomingizdagi mol-mulkka undiruv qaratilishiga, agarda mol-mulk sotilgandan tushgan mablag‘ qarzni to‘liq qoplashga yetmasa, qolgan qarzdorlik zimmangizda saqlanib qolishiga;
– undiruv uchinchi shaxs tomonidan garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratilishiga yoki qarzdorlikni qoplash majburiyatining kafil zimmasiga yuklatilishiga;
– kafil yoki garovga qo‘yuvchi tomonidan qoplangan qarzdorlik summasining keyinchalik sizdan undirilishiga;
– hisobvaraqlaringizdagi mablag‘lar xatlanishiga;
– sudning yoki davlat ijrochisining qarori bilan O‘zbekiston Respublikasidan chiqish huquqingiz vaqtincha cheklanishiga;
– kredit tarixingizga salbiy ta’sir ko‘rsatib, kelajakda kredit olish imkoniyatingizni cheklanishiga olib kelishi mumkin.

OVERDRAFT ShARTNOMASI

20__yil «___» _____ №_____ _____ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining _____ filiali (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi _____ Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomondan, va jismoniy shaxs _____ _____ (keyingi o‘rinlarda – Qarzdor/mijoz), ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Bank, mavjud kredit resurslari doirasida ushbu Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida, _____ (_____) so‘m miqdorida overdraft beradi.

2. Ushbu shartnomaning 1-bandida ko‘rsatilgan overdraft Qarzdorning/mijozning yozma arizasiga asosan ochilgan plastik kartaga o‘tkazib beriladi, undan to‘lovlar amalga oshiriladi va naqd pul yechiladi. *(Bank kengashining 2017 yil 22 noyabrdagi 246-qarori bilan tasdiqlangan va 472-son bilan ro‘yxatga olingan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar tahriridagi band)*

3. Qarzdor/mijoz tomonidan olingan overdraft hisobini yuritish uchun Bank unga tegishli overdraft (kredit) hisobvarag‘i ochadi.

2-§. Shartnoma qiymati

4. Overdraftdan foydalanganlik uchun Qarzdor/mijoz Bankka yillik ___ foiz hisobidan overdraftning amaldagi qoldig‘iga hisoblangan foiz to‘laydi.

Overdraft ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq o‘z vaqtida qaytarilmasa, muddati o‘tgan qarzdorlik uchun yillik ___ foizlik stavkada foiz hisoblanadi.

(Bank kengashining 2020 yil 22 oktyabrdagi 116-qarori bilan tasdiqlangan va 574-son bilan ro‘yxatga olingan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar tahriridagi band)

5. Overdraft bo‘yicha foizlar Bank tomonidan har kuni ushbu Shartnomaning 4-bandida belgilangan foiz stavkasi bo‘yicha berilgan sanadan boshlab amaldagi kunlar sonidan kelib chiqqan holda qarzdorning/mijozning overdraft hisobvarag‘i qoldig‘iga nisbatan hisoblab boriladi va har oyning ___-sanasida undiriladi.

Overdraft to‘lovi dam olish kunlariga to‘g‘ri kelsa, hisoblangan foizlarni to‘lash dam olish kunidan keyingi birinchi bank ish kunida, dam olish kunlarda hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda, amalga oshiriladi.

Overdraft bo‘yicha to‘lov muddati o‘tgan foiz yuzaga kelgan taqdirda Qarzdor/mijoz har bir muddati o‘tgan kun uchun to‘lov muddati o‘tgan foiz qiymatidan ___%, lekin muddatida to‘lanmagan foiz qarzdorligining 50 foizidan oshmagan miqdorda Bankka penya to‘laydi (agar tegishli kredit komissiyasi qarorida muddati o‘tgan foiz qarzdorligiga penya o‘rnatilgan bo‘lsa). Penya to‘lanishi Qarzdorni/mijozni muddati o‘tgan foiz qarzdorligini to‘lashdan ozod qilmaydi. *(Bank kengashining 2022 yil 25 martdagi 35-qarori bilan tasdiqlangan va 2022 yil 31 martda 602-son bilan ro‘yxatga olingan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar tahriridagi xatboshi)*

5-1. Agar amalga oshirilgan to‘lov qiymati qarzdorga/mijozga ajratilgan overdraft bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 248-moddasiga muvofiq, qarzdorning/mijozning qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

a) asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik va muddati o‘tgan foiz to‘lovlari mutanosib ravishda;

b) joriy davr uchun hisoblangan foiz va joriy davr uchun asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik;

v) jarima va penya;

g) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlari.

(Bank kengashining 2025 yil 3 martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)

6-band Bank kengashining 2018 yil 4 maydagi 86-qarori bilan tasdiqlangan va 489-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotdi:

6. Qarzdor/mijoz plastik kartadan overdraft bo‘yicha amalga oshirilgan tranzaksiyalar uchun Bank tariflariga muvofiq vositachilik haqi to‘laydi. *(Bank kengashining 2018 yil 21 fevraldagi 42-qarori bilan tasdiqlangan va 482-son bilan ro‘yxatga olingan qo‘shimcha va o‘zgartishlar tahriridagi band).*

3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

7. Bank quyidagi huquqlarga ega:

a) Qarzdorning/mijozning to‘lovga layoqatlilik qobiliyatini yanada to‘laroq tahlil qilish uchun undan qo‘shimcha hujjatlar talab qilish;

b) overdraft belgilangan muddatda so‘ndirilmaganda, overdraft qaytarilishi yuzasidan ushbu Shartnoma shartlarida belgilangan tegishli choralarni ko‘rish;

v) overdraft yuzasidan asosiy qarz va/yoki foiz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik paydo bo‘lganda, ushbu qarzdorlikni Qarzdor/mijoz va kafilning Bankdagi va boshqa rezident banklardagi hisobvaraqlaridan akseptsiz undirish. *(Bank kengashining 2022 yil 26 sentyabrdagi 139-son qarori bilan tasdiqlangan va 2022 yil 28 sentyabrda 619-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band)*

g) Qarzdor/mijoz tomonidan, ushbu Shartnoma doirasida, korrupsion harakatlar bevosita yoki bilvosita sodir etilganligi aniqlansa, mazkur Shartnomani bir taraflama bekor qilish. *(Bank kengashining 2025 yil 3 martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son*

bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band)

8. Qarzdor/mijoz quyidagi huquqlarga ega:

a) overdraft qiymatii plastik karta maxsus hisobvarag‘iga o‘z vaqtida kirim qilinishini Bankdan talab qilish;

b) overdraft bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni jarima sanksiyalarisiz istalgan vaqtda muddatidan oldin to‘liq to‘lagan holda Bank bilan ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilish.

(Bank kengashining 2020 yil 24 fevraldagi 15-qarori bilan tasdiqlangan va 554-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)

9. Bank quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

a) Qarzdorga/mijozga o‘z vaqtida overdraft (kredit) hisobvarag‘i ochish;

b) Qarzdorning/mijozning talabi bo‘yicha overdraft (kredit) hisobvarag‘ining holatiga oid ko‘chirmani taqdim qilish;

v) Qarzdorni/mijozni quyidagi omillarni hisobga olgan holda o‘z moliyaviy ahvolini tahlil qilishi zarurligi to‘g‘risida ogohlantirish:

Qarzdorning/mijozning qarz yuki joriy moliyaviy ahvoliga mos kelishi;

ushbu shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarini bajarishi uchun taxminan qaysi muddatlarda va qancha miqdorda pul mablag‘i kelib tushishi kutilayotganligi (ish haqi to‘lanishi, boshqa daromad olishi davriyligi);

ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yengib bo‘lmas kuch ta’siridagi vaziyatlar va boshqa holatlar yuz berishi ehtimoli (doimiy ishini yo‘qotish, o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sababga ko‘ra ish haqi va boshqa turdagi daromadni kechikib olishi, ishga joylashishi, sog‘lig‘ining yomonlashganligi natijasida daromadining tushib ketishi);

(Bank kengashining 2020 yil 24 fevraldagi 15-qarori bilan tasdiqlangan va 554-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band)

g) Bank Qarzdorga/mijozga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan overdraftni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, mazkur overdraft bo‘yicha mablag‘ berishni to‘xtatib qo‘yish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarzdorga/mijozga overdraft berish to‘xtatilganligi va uning sababi yuzasidan yozma xabarnoma yuborish; *(Bank kengashining 2020 yil 22 oktyabrdagi 116-qarori bilan tasdiqlangan va 574-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band)*

d) Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu shartnoma bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to‘lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o‘z talabnomasini qarzdorga/mijozga yetkazish (ushbu talabnomada talabnoma tuzilgan sanadagi qarzdorning/mijozning joriy qarzi miqdori va tarkibi, qarzni to‘lash usullari, talabnomada ko‘rsatilgan muddatgacha qarzdor/mijoz o‘z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari va nizoni sudgacha hal qilish usullari qayd etiladi); *(Bank kengashining 2021 yil 11 iyundagi 76-son qarori bilan tasdiqlangan va 587-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band)*

ye) Qarzdor/mijoz tomonidan overdraft bo‘yicha qarzdorlik to‘liq to‘langanidan so‘ng, mazkur qarzdorlik bo‘yicha amalga oshirilgan oxirgi to‘lov sanasining keyingi uch ish kunidan kechiktirmagan holda Qarzdorning/mijozning shaxsiy kabinetida overdraft bo‘yicha qarzdorlik to‘liq so‘ndirilganligi va ushbu Shartnoma bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligi to‘g‘risida ma’lumot joylashtirish. *(Bank kengashining 2020 yil 22 oktyabrdagi 116-qarori bilan tasdiqlangan va 574-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band)*

10. Qarzdor/mijoz o‘z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) overdraft bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida so‘ndirish; *(Bank kengashining 2018 yil 4 maydagi 86-qarori bilan tasdiqlangan va 489-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band)*

b) yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismi va ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlar

bajarilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlarga oid o‘zgarishlar to‘g‘risida axborotni 5 (besh) bank ish kuni mobaynida Bankka taqdim etish;

v) ishdan bo‘shayotganda overdraft va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin so‘ndirish.

4-§. Tomonlarning javobgarligi

11. Tomonlar ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ularga O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlik choralari qo‘llaniladi. *(Bank kengashining 2020 yil 22 oktyabrdagi 116-qarori bilan tasdiqlangan va 574-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

5-§. Nizolarni hal qilish

12. Taraflar ushbu Shartnoma bo‘yicha kelib chiqqan nizoni sudgacha hal qilish usullarini qo‘llash, shu jumladan muzokara o‘tkazish orqali bartaraf etishga haqli hisoblanadi. *(Bank kengashining 2025 yil 3 martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

13. Taraflar mazkur Shartnoma bilan bog‘liq bo‘lgan, muzokara yo‘li bilan hal qilish mumkin bo‘lmagan barcha nizolarni Bank (bank xizmatlari ofisi) joylashgan joydagi tegishli sudda ko‘rib chiqishga kelishib oldilar. *(Bank kengashining 2025 yil 3 martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

6-§. Shartnomaning boshqa shartlari

14. Ushbu Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

15. Qarzdor/mijoz vafot etganda uning huquq va majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

16. Mazkur Shartnoma u imzolangan kundan boshlab to Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu Shartnoma majburiyatlari to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

17. Mazkur Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni u bekor qilingunga qadar bildirilgan o‘zaro da’volarni (talablarni) qondirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

18. Ushbu Shartnomaga kiritiladigan har qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar ular yozma ravishda tuzilib, tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganda qonuniy kuchga ega bo‘ladi.

19. Mazkur Shartnomada ko‘zda tutilmagan holat yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari qo‘llaniladi.

7-§. Tomonlarning pochta manzillari va rekvizitlari

Bank:	Qarzdor/mijoz:
Manzili: _____	Manzili: _____
Tel.: _____ Faks: _____	Telefon:_____
Bank kodi: _____	Tug‘ilgan sanasi:_____
Bank hisobvarag‘i: _____	STIR: _____
STIR: _____	Pasport: seriya _____№_____
Boshqaruvchi:	Qachon va kim tomonidan berilgan _____
_____	_____
Muhr	(imzo)